

## SHARQ MADRASALARINING FAOLIYATI HAMDA ULARDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYON MASALALARI

Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna

Buxoro davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-00033374-2449>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.060>

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq madrasalari tarixi va madrasalar o'qitish tizimida ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan. O'sha davrda yashab o'tgan olimlarning madrasalar uchun ko'rsatgan ilmiy-nazariy izlanishlari tahlil etilgan.*

*Kalit so'zlar: Maktab, madrasa, haftiyak, mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, rassom, musiqashunos, soha vakillari, siyosiy arboblardir.*

## ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВОСТОЧНЫХ МЕДРАС И ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В НИХ

Шодиева Гулрух Хайруллаевна

Бухарский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры начального образования

*Аннотация: В данной статье описывается история восточных медресе и вопросы образования в системе преподавания медресе. На примере медресе проанализированы научно-теоретические исследования ученых, живших в тот период.*

*Ключевые слова: Школа, медресе, haftiyak, mudarris, учёный, писатель, чиновник, посол, военный, имам, художник, музыковед, представители промышленности, политические деятели.*

## THE ACTIVITY OF EASTERN MADRASAHS AND ISSUES OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THEM

Shodiyeva Gulrukh Khairullayevna

Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the primary education department

*Key words: School, madrasa, haftiyak, mudarris, scientist, writer, official, ambassador, military, imam, artist, musicologist, industry representatives, political figures.*

*Abstract: This article describes the history of Eastern madrasahs and issues of education in the madrasah teaching system. The scientific-theoretical researches of the scientists who lived in that period were analyzed for madrasahs.*

Kirish. Movarounnahrda islom dini kirib kelishi bilan diniy ta'lim va u bilan bog'liq ilmlar ham rivojlana boshladi. Ma'naviyatda hurfiylik, ilm-fanga hurmat-e'tibor va uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustunlik qildi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda taraqqiy etib, qadimgi yunon, hind va boshda xalqlarning ilmiy salohiyatidan keng foydalanildi. Aynan shu davrdan hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo'la boshladi. Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqtini olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3-4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng "Haftiyak"ni o'qishni boshlaganlar. O'quvchilar "Haftiyak"ni tugatganlaridan so'ng "Chor-kitob" (To'rt kitob)ni o'qishga kirishganlar. "Chor-kitob" fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, uning birinchi qismida diniy marosimlar she'riy usulda bayon etilgan, ikkinchi qismida yuqoridagi masalalar izohli shaklda ancha keng yoritilgan parchalar o'rin olgan. "Chor-kitob"ning "Musulmonlikning muhim masalalari" deb nomlangan uchinchi qismi o'quvchilarni shariatning asosiy ustuni - musulmon diniy huquqlari bilan tanishtirgan. Kitobning "Pandnoma" (Nasihat kitobi) deb nomlangan va XIII asrda yozilgan to'rtinchi qismida Qur'oni karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar she'riy shaklda bayon etilgan. Shundan so'ng o'quvchilar mutlaq din masalalariga bag'ishlangan "Sabotul o'jizin" kitobini o'qishni boshlaganlar. Ushbu asar ko'pincha uning muallifining nomi bilan, ya'ni - "So'fi Olloyor" deb yuritiladi. Bu sof diniy asar bo'lib, unda diniy masalalar she'riy usulda bayon qilingan. Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Metodlar. XIX asr madrasalarida O'rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi, mantiq ilmlari o'qitilgan. Uni tugatib imomlik qilish yoki qozixonada ishlashi mumkin bo'lgan. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab, fors-tojik tillarida olib borilgan. Asosan o'g'il bolalar o'qigan.

<b>Ta'lim tizimi besh toifaga bo'lingan edi</b>
1. Quyi-boshlang'ich diniy maktab.
2. Qorixona.
3. Daloilxona.
4. Maktab internat.
5. Madrasa.

O'sha davrlarda boshlang'ich diniy maktablar keng tarqalgan edi, shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 taga, qishloqda 10-15 taga yetgan. O'qishga 6 yoshdan qabul qilingan, o'zlashtirishiga qarab 7-12 yil o'qishgan. Bularda Alifbe, Xaftiyak, Chor kitob, So'fi Olloyor, Qur'on o'rgatilgan. Qorixonada asosan Qur'on yod oldirilgan. Uni bitirganlar xalq orasida Qur'on sura va oyatlarini aytib berib yurgan. Qorixonalar katta maktablar yoki mozarlar qoshida ochilgan. Katta shaharlarda ko'p bo'lgan. Ularga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o'g'il bolalar qabul qilingan, 3-4 yil o'qilgan. Qorixonalar madrasalar kabi vaqfga berilgan yer-joy, mollar hisobiga ta'minlangan. 1900-yili Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatida 333 ta qorixona bo'lib, 1203 o'quvchi o'qigan. Daloilxonalar ham vaqf mablag'idan foydalangan, katta yoshdagi savodi chiqqan bolalar o'qigan. 1-2 oy Qur'on suralari, keyin asosiy kitob "Daloil ul-hayrat" yodlatilgan. Bu XV asrda musulmon ulamolaridan Sulaymon ibn Yazuru tomonidan yozilgan asar bo'lib, unda payg'ambar va avliyolar hayoti yoritilgan. O'qish muddati aniq belgilanmagan, xotirasi yaxshilar 2-3 oyda, qolganlar 1 yil yoki ortiqda yod olishgan.

Natija. Maktab internat-o'rta madrasa bo'lib, bularda diniy va dunyoviy fanlar o'qitilgan, o'rta ma'lumot berilgan. Arxiv hujjatlariga ko'ra 1911-yili yanvarigacha O'rta Osiyoda 10003 ta maktab, 1085 ta madrasa bo'lgan. Madrasalar qadimdan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o'quv maskani sifatida katta obro'-e'tibor qozongan. O'rta Osiyo madrasalari tarixi va ularni faoliyati xususida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib mazkur risolada madrasalar faoliyati haqida umumiy to'xtalib o'tmoqchimiz. Madrasa-arabcha "darasa" ("o'rganmoq") so'zidan olingan bo'lib, "o'rganish joyi" degan ma'noni anglatadi. Ilk islom davridanoq masjidlar bunyod etila boshlandi. Dastlab ilm majlislari masjidlarda olib borilgan bo'lsa, keyinchalik madrasalarda tahsil olish yo'lga qo'yildi. Narshaxiyning fikricha, 937-yilgi yong'indan zarar kurgan "Forjak" madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilib, keyinchalik takomillashib borgan. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o'tagan. Movarounnahr hamda Xurosonda asosan davlat va davlatmand shaxslarning mablag'lari hisobiga ko'plab madrasalar qurilgan. Shu tarida madrasalar ko'payib, oliy o'quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblardan hamda olimlar yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan. Madrasalarning asosiy daromadi vaqf mulklaridan bo'lgani uchun yaxshi hosil olinmagan yillari qiynalgan talabalar va mudarrislar muammosini hal qilish maqsadida Mirzo Ulug'bek madrasalarni davlat hisobiga kiritgan va ularga davlat budjetidan mablag' ajratilgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag'allarning

bolalari ham o'qish huquqiga ega bo'lgan va natijada, kiyim-bosh bilan ta'minlangan. O'quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta'lim berilgan. Mirzo Ulug'bek o'quv dasturlarini ham yangidan ishlab chiqqan. Yangi o'quv qo'llanmalar yaratilib, Mirzo Ulug'bek mashg'ulotlarni yakka tartibda olib borishni man etib, "jamo" (guruhlarga bo'lib o'qitish uslubini joriy qilgan. Ma'ruzalar 70 kishidan iborat katta guruhlarga, amaliyotlar esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhlarga bo'lib olib borilgan. Bu uslub keyingi asrlarda ham saqlanib qolganini arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Madrasada turli sohadagi malakali mutaxassislar tayyorlangan. Bu ilm dargohini bitiruvchilarining aksariyati mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, rassom, musiqashunos va hatto ma'rifatparvar bo'lib yetishgan. Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo'shimcha mablag' hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o'z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo'lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, xofiz, muxri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq, ko'rsatilgan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o'z mutavallisi bo'lgan. Mutavalli xodim va talabalarga to'lanadigan haq, vaqf yerlarida ishni tashkil etish, mardikorlar yollash, ijarachilar va xissadorlar bilan shartnoma tuzish, do'konlar, tegirmonlar va madrasaning vaqf mulkiga kiruvchi boshqa obyektlardan ijara haqini undirish va undan boshqa ishlarga mas'ul bo'lgan. Shuningdek, madrasa xizmatchilari, mudarrislari va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ozuqalik don hisobidan ajratilgan. Madrasaga asosan maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan. T.M.Aminov, B.J.Benin, D.N.Logofetlar tadqiqotlarida madrasada ta'lim 10 yildan 30 yilgacha bo'lishi va darslarda qaysi fanlar o'qitilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo'lingan: a'lo (oliy), avsat (o'rta) va adno (quyi). Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo'lgan. Madrasa talabalari asosan ikki guruhga bo'lingan: darsga muntazam qatnashadigan, madrasa hujrasida yashab o'qiydigan talabalar va darslarga erkin qatnashadigan talabalar. Madrasalarda bilim berish asosan suhbat va munozara uslubida olib borilgan, talabalarining mustaqil fikrlashiga alohida e'tibor qaratilgan. Madrasai oliylar nafaqat ta'lim-tarbiya, ayni vaqtda ilm-ma'rifat markazi sifatida alohida e'tibor qozongan. O'quv yili oxirida talabalar o'tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma - diplom berilgan. Madrasalarda talabalar tarbiyasi alohida e'tiborda turgan. Ayni holda, talabalarining yalqovlik va xususan, axloqsizlik qilishiga yo'l qo'yilmagan. Madrasalardagi tarbiya jarayonini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

1) ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tarbiyaviy choralar;

2) ta'lim bilan uzviy bog'liq bo'lgan axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan choralar.

Masalan, "Boziyon" madrasasi vaqfnomasida tarbiyaviy tadbirlar aniq ko'rsatilgan. Ko'pincha chora-tadbirlar moddiy jazo shaklida bo'lgan. Darslarni o'zlashtirish sohasida ta'lim dasturining bajarilmay qolgan qismi aniqlanib, bunday talabalarining o'qish natijalari qoniqarsiz hisoblangan hamda o'zlarini madrasa hujrasida yashash huquqidan mahrum etilgan va nafaqa berish to'xtatilgan. Talabalar o'quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o'qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan. O'quv dasturlari uch qismga bo'lib o'rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta'lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo'llanmani o'zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini markaziy osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziyning hadis to'plamlari, Abu Mansur Moturidiyning "Kitobat-tavxid", Burxoniddin Marg'inoniyning "Al-xidoyati sharx al-bidoya", Abduraxmon Jomiyning "Al-favoid ad-diyoiya", Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning "Vikoyat ar-rivoya fi masoilil xidoya", Ubaydullox ibn Mas'ud Maxbubiyning "An-nukoya" kabi asarlari tashkil etgan. Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarning salohiyati hamda mavjudligiga qarab, xandasa, tibbiyot, kimyo, jug'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san'ati va gigiyena kabi fanlardan ham bilim olishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, madrasalarda faqatgina diniy asosdagi fanlarga o'zlashtirilmagan. Shuningdek, ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda alohida fanlar tahsili yo'lga

qo'yilgan. Masalan, tabiblar tayyorlash uchun «Dorush-shifo» madrasasida Abu Ali ibn Sino, Roziy, Abu Hasan Ali ibn Rizvon Misriy, Subxonqulixon kabi tabiblarning asarlarini o'qitish joriy etilgan. Bunday madrasalarda tahsil olgan talabalar keyinchalik shu sohaga oid risolalar yozib, mudarrislik qilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro madrasalari qadimdan o'z nufuziga ega bo'lib, talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odat, axloq-odob me'yorlari, tarixiy, milliy qadriyatlarini saqlab qolishga, talabalarni kamtar, xushmuomalali, rostgo'y, oliyjanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg'unlikda o'qitilib, ma'rifatparvar olimlar, davlat arboblari yetishib chiqdi. Ammo, madrasa ta'lim tizimidagi ushbu yutuqlar, yurtimiz tarixi, ilmiy merosi yetmish yildan ortiq davr mobaynida noxolis yoritilib kelindi. Bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri-bu yurtimiz tarixini asl holicha o'rganib, yosh avlodga yetkazishdan iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. Тошкент 2017.

Чориев А.Х. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма: противоречия между системами традиционно-национальной и советской (20-30-е годы). Доктора исторических наук. - Т.: 1998.; Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт сабоги.

Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.:Камалак, 1991. —Б. 161.

Nurova F.K, Shodiyeva G.X “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga qiziqtirishda innovatsion-integratsion texnologiyalardan foydalanish usullari”. Monografiya. 2023-yil. 50-56-betlar.

G.X.Shodiyeva “Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni o'qishning ahamiyati”. Respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konfrensiyasi. 12-dekabr 2022-yil. 267-269-betlar.